ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-2

# TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

**Otaxonova Zamira Muratovna**
Farg'ona davlat texnika universiteti
Ijtimoiy fanlar va sport kafedrasi katta o'qituvchisi
**Rajabova Xurshida Xusanboyevna**
Farg'ona davlat texnika universiteti
Ijtimoiy fanlar va sport kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** mazkur maqolada tanqidiy fikrlashning pedagogik psixologiyadagi o'rni va shaxsning yuqori darajadagi kognitiv salohiyatini shakllantirishdagi roli, zamonaviy ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy psixologik mexanizmlar, savol-javob va muhokama, muammoli o'qitish, refleksiya, muloqot va hamkorlik hamda simulyatsiya va rol o'yinlari tahlili, mazkur mexanizmlarning o'quvchilarda metakognitiv nazorat, analitik tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari haqida so'z yuritigan.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, psixologik mexanizmlar, metakognitiv nazorat, refleksiya, muammoli o'qitish, savol-javob texnologiyasi, simulyatsiya, rol o'yinlari, pedagogik psixologiya, ta'lim samaradorligi.

**Аннотация.** в данной статье рассматривается роль критического мышления в педагогической психологии и его роль в формировании высокого уровня когнитивного потенциала личности, основные психологические механизмы, служащие развитию критического мышления в современном образовательном процессе, вопросы и ответы и обсуждение, проблемное обучение, рефлексия, общение и сотрудничество, а также анализ симуляции и ролевых игр, развитие метакогнитивного контроля, аналитического мышления и навыков самостоятельного принятия решений у учащихся, возможности интеграции этих механизмов в образовательный процесс.

**Ключевые слова:** критическое мышление, психологические механизмы, метакогнитивный контроль, рефлексия, проблемное обучение, технология вопросов и ответов, симуляция, ролевые игры, педагогическая психология, эффективность обучения.

**Annotation.** This article examines the role of critical thinking in pedagogical psychology and its role in the formation of a high level of cognitive potential of the individual, the main psychological mechanisms serving the development of critical thinking in the modern educational process, questions and answers and discussion, problem-based learning, reflection, communication and cooperation, as well as the analysis of simulation and role-playing games, the development of metacognitive control, analytical thinking and independent decision-making skills in students, and the possibilities of integrating these mechanisms into the educational process.

**Keywords:** critical thinking, psychological mechanisms, metacognitive control, reflection, problem-based learning, question-and-answer technology, simulation, role-playing games, pedagogical psychology, learning effectiveness.

## KIRISH

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-2

Hozirgi globallashuv, axborot makonining kengayib borishi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifa shaxsda mustaqil, mantiqiy mushohada yurita oladigan hamda tanqidiy tahlil asosida qaror qabul qila oladigan kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir [4, 15–18], [6, 9–12]. Zamonaviy ta’lim bosqichida tayyor bilimlarni yoddan chiqarishdan ko‘ra ularni anglab, baholab, ijodiy tarzda qayta ishlash ko‘nikmalari 21-asr talablari asosida ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda [6, 10–11]. Shu nuqtai nazardan, tanqidiy fikrlash pedagogik psixologiyada shaxsning yuqori darajadagi kognitiv salohiyatini ifodalovchi markaziy komponent sifatida e’tirof etiladi [12, 102–105].

Tanqidiy fikrlash spontan jarayon bo‘lmay, u maqsadli tashkil etilgan ta’lim jarayoni va psixologik mexanizmlar orqali rivojlanadi [1, 264–266]. Jahon, MDH va O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, savol-javob va muhokama, muammoli o‘qitish, refleksiya, muloqot va hamkorlik hamda simulyatsiya va rol o‘yinlariga asoslangan pedagogik yondashuvlar tanqidiy fikrlashni shakllantirishda metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi [14, 73–75], [5, 58–61]. Ushbu mexanizmlar ta’lim oluvchilarning bilish faolligini kuchaytirib, tafakkurning yuqori darajadagi kognitiv operatsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [7, 41–43].

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tahliliy kompetensiyalarni shakllantirish davlat ta’lim siyosatining muhim vazifalari sifatida qayd etilgan [8, 3-modda]. Shuningdek, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2030”da zamonaviy fikrlovchi, raqobatbardosh va intellektual salohiyatga ega shaxsni tayyorlash ta’lim tizimining strategik maqsadi sifatida belgilangan [9, IV bob].

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishga doir Prezident farmonlarida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagoglar malakasini oshirish hamda o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan [12, 17–21-bandlar]. Ta’lim jarayonida innovatsion metod va texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quvchilarning yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda [11, 18–19-bandlar].

Pedagogik amaliyotda mazkur mexanizmlarning ilmiy asosda qo‘llanilishi o‘quvchilarda metakognitiv nazorat, analitik va refleksiv yondashuv, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish hamda dalillarga asoslangan fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratadi [3, 145–147]. Shu sababli tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini tizimli o‘rganish, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va samaradorligini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berish bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda [10, 118–120].

Mazkur bo‘limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy psixologik mexanizmlar Jahon, MDH va O‘zbekiston olimlarining ilmiy qarashlari asosida kompleks tahlil qilinib, ularning pedagogik amaliyotdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Mazkur mavzuni o‘rganishning dolzarbligi, avvalo, zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning faqat bilim egallovchi emas, balki bilimni tanqidiy tahlil qila oladigan, mustaqil va asosli qaror qabul qilishga qodir subyekt sifatida shakllanishi bilan belgilanadi. Globallashuv va raqamli axborot oqimining keskin ortishi sharoitida ta’lim oluvchilar turli, ko‘pincha qarama-qarshi ma’lumotlarni baholash,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025



ularni mantiqiy saralash va xulosalash zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda. Bu esa tanqidiy fikrlashni shaxsning fundamental intellektual kompetensiyasi sifatida rivojlantirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, pedagogik-psixologik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash ko‘pincha umumiy didaktik tavsiyalar doirasida yoritilib, uning rivojlanishiga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlar — metakognitiv nazorat, refleksiya, analitik operatsiyalar, muammoli vaziyatda qaror qabul qilish jarayonlari yetarli darajada tizimli va chuqur o‘rganilmagan. Ayniqsa, ushbu mexanizmlarning ta’lim jarayonida qanday sharoitlarda va qaysi metodlar orqali samarali shakllanishi masalasi ilmiy asoslangan tahlilni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish davlat miqyosida ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan psixologik-pedagogik mexanizmlarni aniqlash, ularni ilmiy jihatdan asoslash va ta’lim jarayoniga moslashtirish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini kompleks o‘rganish ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, pedagogik texnologiyalar samaradorligini oshirish hamda raqobatbardosh, intellektual salohiyatga ega shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish bugungi ta’lim tizimi ehtiyojlari, davlat ta’lim siyosati ustuvor yo‘nalishlari hamda pedagogik amaliyot talablari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Zamonaviy ta’lim sharoitida shaxsning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va asoslangan qarorlar qabul qila olishi ta’lim samaradorligining muhim mezoniga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik psixologiyada tanqidiy fikrlash shaxsning yuqori darajadagi kognitiv faoliyati sifatida talqin qilinadi. U nafaqat bilimlarni eslab qolish bilan cheklanib qolmay, balki ularni chuqur tahlil qilish, baholash, qayta tuzish hamda muqobil yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Mazkur murakkab kognitiv jarayonlar pedagogik amaliyotda maxsus tashkil etilgan ta’lim muhiti va muayyan psixologik mexanizmlar orqali izchil rivojlantiriladi.

Ushbu jarayon pedagogik amaliyotda bir qator psixologik mexanizmlar orqali rivojlantiriladi.

Psixologik mexanizmlarning birinchisi “Savol-javob va muhokama mexanizmi” tanqidiy fikrlashni faollashtiruvchi asosiy psixologik vositalardan biri hisoblanadi. B. Blumning kognitiv taksonomiyasiga ko‘ra, yuqori darajadagi savollar (tahlil, sintez, baholash) o‘quvchilarda murakkab tafakkur operatsiyalarini ishga tushiradi [4, 102–105]. Ayniqsa, “Nega?”, “Qanday qilib?”, “Muqobil variantlar mavjudmi?” kabi savollar metakognitiv jarayonlarni, ya’ni shaxsning o‘z fikrlash faoliyatini nazorat qilishini kuchaytiradi.

J. Dyui ta’limda muhokama va savol berish jarayonini reflektiv fikrlashning asosi sifatida ko‘rsatib, aynan muammoli savollar orqali shaxsning mustaqil fikrlashi shakllanishini ta’kidlaydi [6, 58–61]. MDH olimi L.S. Vygotskiy esa ijtimoiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan savol-javoblar “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytirib, tafakkurning yuqori shakllarini rivojlantirishini asoslab bergan [12, 264–266].

O‘zbekistonlik pedagog-olimlar tadqiqotlarida ham savol-javob texnologiyalarining talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va bahs madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni alohida qayd etiladi [1, 145–147].

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025



“Muammoli o‘qitish mexanizmi” psixologik mexanizmlarning ikkinchisi o‘quvchilarni tayyor bilimlarni qabul qilishdan ko‘ra, muammoni mustaqil anglash va hal etishga yo‘naltiradi. A.M. Matyushkin muammoli vaziyatni shaxsning intellektual faolligini uyg‘otuvchi psixologik holat sifatida talqin qiladi [14, 73–75]. Muammoli vaziyat idrok, xotira va tafakkur jarayonlarini integratsiyalashgan holda ishga tushiradi.

Jahon pedagogikasida J. Bruner muammoli o‘qitishni “kashfiyot orqali o‘rganish” konsepsiyasi bilan bog‘lab, bunda o‘quvchi bilimni tayyor holda emas, balki faol izlanish orqali egallashini ta’kidlaydi [5, 89–92]. Bu jarayon tanqidiy fikrlashning mantiqiy va ijodiy komponentlarini rivojlantiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilgan tadqiqotlar muammoli ta’lim metodlari talabalarning analitik tafakkuri, muammoga nisbatan mas’uliyatli yondashuvi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishini ko‘rsatadi [2, 118–120].

Psixologik mexanizmlarning ucjinchisi “Refleksiya mexanizmi” tanqidiy fikrlashning ichki psixologik asosi hisoblanadi. U shaxsning o‘z fikrlash jarayonini tahlil qilishi, xatolarini anglash va ularni tuzatishga intilishi bilan bog‘liq. J. Flavell refleksiyani metakognitiv nazoratning asosiy komponenti sifatida izohlaydi [7, 34–36].

A.V. Karpov refleksiyani shaxsning o‘z faoliyatiga nisbatan ongli munosabati sifatida talqin qilib, uning intellektual rivojlanishdagi rolini alohida ta’kidlaydi [13, 57–60]. Refleksiya jarayonida emotsional va kognitiv omillar uyg‘unlashib, ichki nazorat mexanizmlari mustahkamlanadi.

O‘zbekiston olimlari refleksiv yondashuvni talabalarda tanqidiy baholash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va professional ongni shakllantirishning muhim sharti sifatida ko‘rsatadilar [11, 201–203].

“Muloqot va hamkorlik mexanizmi” Psixologik mexanizmlarning to‘rtinchisi tanqidiy fikrlashning ijtimoiy-psixologik asosini tashkil etadi. K.Levin va A.Bandura tadqiqotlariga ko‘ra, guruhiy muhokama va hamkorlik shaxsda ijtimoiy taqqoslash, empatiya va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantiradi [3, 66–68].

Vygotskiy nazariyasida ijtimoiy muloqot tafakkur rivojlanishining manbai sifatida qaraladi. Turli nuqtai nazarlarning to‘qnashuvi o‘quvchini o‘z pozitsiyasini asoslashga va qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi [12, 271–273].

O‘zbekiston pedagogik tadqiqotlarida jamoaviy ta’lim texnologiyalari tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik va mas’uliyat hissini kuchaytiruvchi omil sifatida baholanadi [10, 89–91].

Psixologik mexanizmlarning beshinchisi “Simulyatsiya va rol o‘yinlari mexanizmi” o‘quvchilarni real hayotga yaqin vaziyatlarga joylashtirib, qaror qabul qilish va tahlil qilish jarayonlarini faollashtiradi. D. Kolbning tajribaviy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, shaxs faol tajriba orqali bilimni chuqurroq o‘zlashtiradi [139, 41–43].

Rol o‘yinlari muammoli vaziyatlarda tezkor, moslashuvchan va asosli fikrlashni shakllantiradi. MDH olimi N.F. Talyzina bu metodlarni intellektual operatsiyalarni avtomatlashtirish va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida ko‘rsatadi [15, 112–114].

O‘zbekiston ta’lim amaliyotida simulyatsion mashg‘ulotlar talabalarning tanqidiy tahlil, kasbiy qaror qabul qilish va mas’uliyat hissini rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida qo‘llanilmoqda [8, 156–158].

## MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot doirasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy psixologik mexanizmlar — savol-javob va muhokama, muammoli o‘qitish, refleksiya, muloqot va hamkorlik

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025



hamda simulyatsiya va rol o‘yinlari mexanizmlari ilmiy-nazariy va pedagogik-amaliy jihatdan tahlil qilindi. Olingan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash bir martalik yoki spontan shakllanadigan ko‘nikma bo‘lmay, balki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan psixologik mexanizmlar tizimi orqali izchil rivojlanadigan murakkab kognitiv jarayon hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari B. Blum, J. Dyui, L.S. Vygotskiy, J. Bruner, J. Flavell kabi jahon va MDH olimlarining nazariy qarashlari bilan uyg‘un ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, savol-javob va muhokama mexanizmi orqali yuqori darajadagi kognitiv operatsiyalarni faollashtirish imkoniyati mavjudligi haqidagi qarashlar mazkur tadqiqotda ham tasdiqlandi. “Nega?”, “Qanday?” kabi muammoli savollar o‘quvchilarning nafaqat bilimini faollashtiradi, balki ularning o‘z fikrlash jarayonini anglash va nazorat qilishiga ham xizmat qiladi. Bu holat metakognitiv nazoratning tanqidiy fikrlashdagi muhim o‘rnini yana bir bor asoslaydi.

Muammoli o‘qitish mexanizmi tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchini intellektual qiyinchilik holatiga olib kirish tanqidiy fikrlashni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. A.M. Matyushkin va J. Bruner tomonidan asoslab berilgan muammoli vaziyat nazariyasi mazkur tadqiqotda pedagogik amaliyot nuqtai nazaridan ham dolzarbligini saqlab qolayotganini ko‘rsatdi. O‘quvchilar muammoli vaziyatda tayyor bilimlarga emas, balki mantiqiy tahlil, dalillash va muqobil yechimlar ishlab chiqishga tayanadi, bu esa tanqidiy fikrlashning mantiqiy va ijodiy komponentlarini rivojlantiradi.

Refleksiya mexanizmi muhokamasi tanqidiy fikrlashning ichki psixologik poydevori sifatida alohida ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. J. Flavell va A.V. Karpov tadqiqotlariga mos ravishda, refleksiya shaxsning o‘z bilish faoliyatiga ongli munosabatini shakllantirib, xatolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari refleksiv yondashuv yetarli darajada tashkil etilmagan ta’lim muhitida tanqidiy fikrlashning to‘liq shakllanmasligini ko‘rsatadi.

Muloqot va hamkorlik mexanizmlarining tahlili tanqidiy fikrlashning ijtimoiy-psixologik tabiatini yana bir bor tasdiqladi. Vygotskiy ta’kidlaganidek, ijtimoiy o‘zaro ta’sir tafakkur rivojlanishining manbai hisoblanadi. Guruhiy muhokama jarayonida turli nuqtai nazarlarning to‘qnashuvi o‘quvchini o‘z pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqishga, dalillarni solishtirishga va asoslashga undaydi. Bu esa tanqidiy fikrlashning muhim komponentlari — mantiqiy izchillik va dalillash madaniyatini rivojlantiradi.

Simulyatsiya va rol o‘yinlari mexanizmi bo‘yicha olib borilgan tahlil tanqidiy fikrlashni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash imkonini berishini ko‘rsatdi. D. Kolbning tajribaviy o‘rganish nazariyasiga muvofiq, faol tajriba orqali egallangan bilimlar barqaror va funksional bo‘ladi. Rol o‘yinlari jarayonida o‘quvchilar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tezkor va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga majbur bo‘ladi, bu esa tanqidiy fikrlashning amaliy jihatdan shakllanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda alohida metodlardan ko‘ra, psixologik mexanizmlar majmuasini tizimli qo‘llash samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida mazkur mexanizmlarni ilmiy asosda joriy etish pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va raqobatbardosh shaxsni shakllantirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

## XULOSA

Mazkur tadqiqot tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlarni zamonaviy pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan tahlil qildi. Natijalar tanqidiy fikrlash tayyor bilimlarni qabul qilish emas, balki ularni tahlil qilish, baholash va muqobil yechimlar ishlab chiqish orqali shakllanishini ko‘rsatdi. Shuningdek, savol-javob, muammoli o‘qitish, refleksiya, hamkorlik

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025



VOLUME-6, ISSUE-2

hamda simulyatsiya kabi mexanizmlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari ushbu mexanizmlarni ta'lim jarayoniga joriy etish pedagogik samaradorlikni oshirishini tasdiqlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тишабаева Л. А. Развитие ремесла в Узбекистане //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 11-1 (144). – С. 110-111.
2. Тишабаева Л. А. Роль трудов учёных-мыслителей востока в духовном возрождении общества //Достижения науки и образования. – 2018. – №. 13 (35). – С. 34-35.
3. Тишабаева Л. А. Возможности развития туризма в городе Кувасай Республики Узбекистан //Научные исследования. – 2018. – №. 6 (25). – С. 25-27.
4. Тишабаева Л. А. Изучение истории в воспитании молодежи Узбекистана-один из важнейших вопросов //Вопросы науки и образования. – 2018. – №. 7 (19). – С. 84-85.
5. Rajabov M. J., Rajabova X. X. Self-consciousness of students in social and psychological mechanisms //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – С. 176-179.
6. Khusanboyevna R. K. INNOVATIVE CRITERIA AND LEVELS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE SPECIALISTS IN THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGY //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2025. – Т. 5. – №. 2. – С. 300-305.
7. Xusanboyevna R. X. SCIENTIFIC APPROACHES TO PEDAGOGICAL COMPETENCE IN DEVELOPED COUNTRIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 12. – С. 1148-1156.
8. Rajabova X. X., Dekhkanova M. B. TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATI TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING PIROVARD NATIJASI SIFATIDA //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. TMA Conference. – С. 251-255.
9. Эргашев У. А. ПРИОРИТЕТ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭТИКИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1573-1575.
10. Эргашев У. А. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-1. – С. 785-788.
11. Adhamovich E. U. AESTHETIC AND ECOLOGICAL ATTITUDE OF THE PERSON TO NATURE CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF ITS PROPERTIES //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 42. – С. 543-546.
12. Adhamovich E. U. PROBLEMS OF PATRIOTIC SENSE FORMATION IN YOUTH //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 42. – С. 209-212.
13. Muratovna O. Z. THEORETICAL FOUNDATIONS OF USING THE TRADITIONS OF FOLK PEDAGOGY IN EDUCATING THE YOUNG GENERATION IN THE NATIONAL SPIRIT //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 10. – С. 74-77.
14. Madaliev, M., Usmonov, M., Otajonov, J., Bilolov, I., Otakhanova, Z., Rajabova, K., & Israilov, S. (2024). The effect of slip on the development of flow separation due to a bump in a channel based on a two-fluid turbulence model. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 508, p. 06003). EDP Sciences.

15. Qodirov, X., Rajabova, X., Abdullajonova, N., Otaxonova, Z., Aliev, I., Abdurakhmon, S., & Sayitov, S. (2024). On analytical study of heat transfer phenomenon in special-shape soldering iron. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 508, p. 05006). EDP Sciences.

16. Zamiraxon O., Madinabonu S. MECHANISMS FOR ACTIVATING FEMALE STUDENTS'ENGAGEMENT IN DEVELOPING LANGUAGE LEARNING SKILLS THROUGH INTERACTIVE METHODS BASED ON FOLK PEDAGOGY //Universum: технические науки. – 2025. – Т. 7. – №. 6 (135). – С. 28-31.

17. Madaliev, M., Mamatov, A., Otajonov, J., Kadyrov, K., Bilolov, I., Otakhanova, Z., & Muminov, K. (2024). Numerical study of flow after NASA 4412 aerodynamic profile based on the SST turbulence model. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 508, p. 06006). EDP Sciences.

18. Boykuziyeva R. K. Theoretical and practical issues of researching the characteristics of the formation of social tolerance in students //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – Т. 18. – С. 14-19.

19. Бойкузиеа Р., Тишабаева Л. Ахборотлар ёрдамида туристик оқимни ва турмаҳсулотларни етказиб беришни бошқариш //Yosh Tadqiqotchi Jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 31-37.

20. Юсупов А., Бойкузиева Р. УГРОЗЫ ГЛОБАЛИЗАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В МИРЕ НА ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ И СПОСОБЫ ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1613-1617.

21. Karimovna B. R. Modern Problems of Attracting Students to the National Cultural Heritage //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2023. – Т. 27. – С. 32-35.

22. Boyqo‘zieva R. MILLIY MADANIY MEROSIMIZNI O ‘RGANISHDA TALABALAR INTELLEKTUAL MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY JARAYONLARI //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 3. – С. 46-46.

23. Ўринбоева М. С. ТАБИАТГА ЭКОЛОГИК МУНОСАБАТЛАР ТАРИХИНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1554-1557.

24. Sodikovna, O. M. (2023). Ethical Aspects of Ecological Relations. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(1), 131-134. *https://doi.org/10.17605/OSF.IO/EWDR3*

25. Maftuna O. MILLIY ETOSFERA VA EKOLOGIK MADANIYAT //Yosh Tadqiqotchi Jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 197-203

26. Ўринбоева М. С., Расулова Ш. А. ЭКОЛОГИК БАРҚАРОР ТАРАҚҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШДА АХЛОҚНИНГ ФУНКЦИЯЛАРИ //ТОШКЕНТ-2021. – С. 104.

27. Уринбаева М. С. ТАБИАТГА ЭКОЛОГИК МУНОСАБАТ ВА МАДАНИЯТ //Экономика и социум. – 2021. – №. 11-2 (90). – С. 506-508.

28. Murodil R. The concept of makiavellism in the scientific psychological literature and the degree of mac-scale in a person //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 5. – С. 1249-1257.

29. Rajabov M. J. MANIPULATION AS PROCESS DECISION MAKING IN ADVERTISING //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 358-360.

30. Murodil R. The concept of makiavellism in the scientific psychological literature and the degree of mac-scale in a person //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 5. – С. 1249-1257.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025



VOLUME-6, ISSUE-2

31. Ражабов М. Ж. Психолингвистик жараёнда манипуляциянинг роли //Инновации в педагогике и психологии. – 2021. – Т. 4. – №. 7.
32. Jumaboevich R. M. Black Three in Personal Psychological Characteristics or Maciavelism, Psychopathy and Narsism. – 2022.
33. Atamukhamedova M. R., Eminov A. Y., Boratov O. M. Changes in the respiratory and blood system as a result of physical exercises //CHANGES. – 2019. – Т. 10. – С. 102019.
34. Yigitalievch E. A. THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS FOR HUMAN HEALTH AND YOUTH DEVELOPMENT //International Journal of Pedagogics. – 2022. – Т. 2. – №. 05. – С. 26-29.
35. Mikheeva A. I. HEALTH BENEFITS OF REGULAR PHYSICAL ACTIVITY: A LITERATURE REVIEW //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – С. 467-474.
36. Mikheeva A. I. К НЕКОТОРЫМ ПРОБЛЕМАМ ВОСПИТАНИЯ В ХОДЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 9. – С. 90-97.
37. Mikheeva A. I. PHYSICAL EDUCATION AND PHYSICAL ACTIVITY IN MODERN LIFESTYLE //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 31-39.
38. Mikheeva A. TEACHING SKILL OF THE TEACHER AND ITS FORMATION //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 8. – С. 323-328.